JISMONIY MADANIYAT DARSLARIDA O‘QUVCHILAR FAOLIYATINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Abduraxmonov Shavkat Qaxxorovich
Jismoniy tarbiya va adaptive sport nazariyasi kafedrasi dotsenti v.v.b.
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya

Jismoniy madaniyat darsi nazariyasining mazmunidagi o‘quvchi va o‘qituvchilarning faoliyatini uyushtirish va boshqaruvi nazariyasi, kasbiy tayyorgarlik va kasbiy mahoratni oshirish jarayoni keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Jismoniy madaniyat darsi, o‘quv guruhlariga ajratish, darsni uyushtirish, dars vazifasi, o‘quv ishlari, boshqaruv, o‘quvchilarni joylashtirish, harakat faoliyatlarini boshqaruvi, shartli signallar.

KIRISH. Jismoniy madaniyat darsi nazariyasining mazmunidagi o‘quvchi va o‘qituvchilarning faoliyatini uyushtirish va boshqaruvi nazariyasi kasbiy tayyorgarlik va kasbiy mahoratni oshirish jarayonining asosi ekanligiga ishonch hosil qildik.

V.G.Podolskiy o‘tgan asrni 70 yillaridagi o‘tkazgan tadqiqotlari orqali “...mashg‘ulotlarni, ayniqsa darslarni doimiy ravishda bir xil standartlar asosida tashkillash, uyushtirishni shablonga aylanishi samara dorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishini takidlagan. Bu o‘quvchilar (shug‘ulla nuvchilar)da darsga nisbatan befarqlik va ma’suliyatsizlik, qiziqishni pasayishiga, umuman yo‘qolishiga olib keldi” deb xulosa chiqardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi kun jismoniy tarbiyasi jarayoni amaliyotida, ayniqsa ularning mashg‘ulotlari darslarda buyruqlar, ko‘rsatmalar, shartli signal lardan tushuntirish talab qilinmaydigan harakatlarni bajarishda, oldin o‘rganilgan harakatlarni ijrosida, ulardan foydalanishni boshqaruv jara yonining hususiy tomonlaridan biri deb qaralayotganligini bildik.Boshqaruvning bu hususiyati o‘quvchi yoshini kattalashgani (ortib borishi) sari mashg‘ulotlarga ongli munosabatni yanada kuchayishi bilan kechishi, o‘z navbatida bu L.P. Matveyev va B.A.Ashmarinlarning uslubiy prinsiplarida ta’kidlanganidek shug‘ullanuvchilarning faolligini kuchayishi bilan kuzatilishini guvohi bo‘ldik.

L.P.Matveyev, A.Abdullayev va Sh.X. Xankeldiyevlarning fikricha darsda o‘quvchilarning joy almashinuvi faqat jismoniy mashqni o‘zlashtirish maqsadidagina emas, o‘zlashtiriladigan mustahkamlanadigan mashqning ijrosi texnikasini takomillashtirish yoki o‘quv materialini o‘zlashtirilishini baholash, darsning har qanday holatidagi jismoniy yuklamaning hajmi va intensivligini boshqarishni nazarda tutish lozimligini hisobga olish maqsadida ham foydalaniladi deb uqtiradilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Farg‘ona shahar 4-13-25 va Farg‘ona tumanining 3-4-55 umumta’lim maktablari nazorat va eksperimental maktablaridagi tajribalarimiz mashg‘ulotlarning dars shaklini xarakterli hususiyatlaridan - jismoniy madaniyat o‘qituvchisi tomonidan *darsni uyushtirish*, o‘quvchilarni darsda bir joydan boshqa joyga, bir sport jihozidan, boshqa sport jihoziga o‘tkazish yoki mashq bajariladigan joylarni *almashtirish* va darsda bajarilishi lozim bo‘lgan *ishni tartibini yo‘lga qo‘yish* (belgilash) hususiyatlarini muhimligiga amalda ishonch hosil qildik.

Aslida maxsus adabiyot materiallari darsda o‘quvchlar foliyatini tash killash asosan jismoniy madaniyat fani o‘qituvchisi, sinfning jismoniy madaniyat faollari tomonidan amalga oshirilishini, mashg‘ulotlarning boshqa shakllarida esa sport pedagogi, jamoatchi yo‘riqchilar

tomonidan boshqarilishi, tashkillanishi, joy almashinishini yo‘lga qo‘yilishi amalda ko‘proq uchrashi bayon qilingan.

Hozirgi kun jismoniy madaniyat darslarida esa bu jarayon qat’iyan belgilangan,oldindan aniq qilib ko‘rsatilgan vaqt ichida, maxsus ajratilgan joyda, nisbatan doimiy tarkibli oldindan tanlab tuzilgan (sinf o‘quvchilari jismoniy tayyorgarligi, rivojlanganligi ko‘rsatgich lariga qarab) *o‘quv guruhlariga ajratilib ta’lim qonuniyatlarga* rioya qilingan holda amalga oshirilayotganligini kuzatdik.

Nazorat va eksperimental maktablaridagi biz kuzatgan 40 dan (ikki yil davomida) ortiq o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning jismoniy madaniyat darslarini 63 % da darsning tashkiliy daqiqasini tashkillash shakli aytarli darajada bir xil ekanligini, strukturasi tarkibidagi an’anaviy saflashdan o‘quvchni darsga tayyorgarligini aniqlagungacha bajariladigan elementlardan shu kungi darslarning 90%da o‘qituvchilar bir xil foydalanadi; o‘quvchi sonini (davomatni)aniqlash uchun vaqt sarflashdan 40 % o‘qituvchi hozir ham foydalanadi; raport qabul qilish, salomlashish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarligini aniqlashdan aytarli 95% o‘qituvchi foydalanadi va darsni temasi yoki vazifasini maqsadli va o‘quvchi tushinadigan qilib e’lon qilishdan o‘qituvchilarning 30% ni doimiy foydalanishini guvohi bo‘ldik.

Dars vazifasi yoki mavzusidan kelib chiqib beriladigan nazariy ma’lumotlarni berish maqsadida yozdirish bilan dars boshlaydigan – boshqachasiga aytganda darsda nazariy bilimlarni berishga urinish qilgan o‘qituvchilar yoki jismoniy madaniyat darslarida nazariy bilimlarni puxtaroq, aksent berib bajartiradiganlar 3% dan ortmadi. Nazariy bilimlarni yozdirish urflikdan chiqqan. Kuzatgan darslarimizning 28 %da esa tashkiliy daqiqalarni uyushtirish bir xil shablonda, ayrimlarida esa tashkiliy daqiqa (4.5% holatda) umuman o‘tkazilmasligini kuzatdik. Qolgan 6% holatda o‘qituvchi sinfning jismoniy madaniyat faollariga darsni uyushtirishni ishonadi. Anketa savollariga dars nazariyasi bo‘yicha o‘qituvchilarimizga berilgan savollarimizning javobi ham biz kutgan natijani bermadi. 40 nafardan ortiq jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining 70 % dan ortig‘i jismoniy tarbiya dasturining nazariy ma’lumotlari bo‘limidagi o‘quv materiali o‘quvchilarda qiziqish o‘yg‘otmasligini, dastur mavzularni yangilash zarur degan fikr bildirdilar; faqat 19 % so‘rovda ishtirok etgan o‘qituvchi largina nazariy bilimlarini alohida baholash uslubiyotidan foydalani shini; 7,3% esa nazariy bilimlarini oshirish maqsadida referatlar yozdirishini; 4,3 % o‘qituvchi nazariy bilimlarini daftarga qayd qilish uchun darsdan maxsus vaqt ajratishini; 30% ortig‘i jismoniy madaniyat darsi dastur materialini-amaliy harakat malakalari va ko‘nikmalarni shakllantirishini, nazariy bilimlarni faqat dastur materialidagi larnigina o‘qitish lozim degan fikrni bildirdilar. Yuqoridagilardan kelib chiqib maktab jismoniy madaniyat darsi sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyatining nazariy bilimlarini berishdek hususiyatlariga e’tiborni kuchaytirishni taqazo etishini ta’kidlashimiz joiz.

Ta’lim muassasalarida *o‘qituvchi tomonidan”o‘quv ishlari - darsni tashkillash”ni uch xil qonuniyatga aylangan jihati: a) boshqaruv; b) o‘quvchilarni joylashtirish; v) ular bilan belgilangan ishni bajarish tartibini yo‘lga qo‘yilishi* bilan bog‘liq nazariy bilimlar yetarli darajada berilmayotganligini guvoh bo‘ldik.


Qayd qilingan hususiyatlarning yetakchilaridan biri jismoniy madaniyat darsida mutaxassisni shug‘ullanuvchilarni *boshqarishni yo‘lga qo‘yishi bilan bog‘liq* jihatlariga oid oid *nazariy bilimlar*idir. Biz tadqiqot olib borgan nazorat guruhiga kiruvchi maktablarimizda o‘qituvchi tomonidan darsida o‘quvchilarni boshqaruvning asosiy usullari: buyruqlardan foydalanish 60-68 % atrofida, ko‘rstmalar berishdan foydalanish 12-15 % atrofida, sanoqdan 8-10 % atrofida, 6-9 % atrofida ovozli signallarni qo‘llash bilan o‘quvchilar faoliyatini tashkillashdan amalda foydalanilayotganligini kuzatdik (1-chizma,35 sahifaga qarang).

Kuzatuvlarimiz harakat faoliyatlarining boshqaruvi buyruqlar orqali yo‘lga qo‘yilishini, ularning qisqaligi, aniqligi, ijrosi uchun esa belgi langan majburiy talablarni qo‘yishi bilan farqlanishini aniqladik.

Hozirgi kun jismoniy tarbiyasi jarayoni amaliyotida, ayniqsa ularning mashg‘ulotlari darslarda buyruqlar, ko‘rsatmalar, shartli signal lardan tushuntirish talab qilinmaydigan harakatlarni bajarishda, oldin o‘rganilgan harakatlarni ijrosida, ulardan foydalanishni boshqaruv jara yonining hususiy tomonlaridan biri deb qaralayotganligini bildik.Boshqaruvning bu hususiyati o‘quvchi yoshini kattalashgani (ortib borishi) sari mashg‘ulotlarga ongli munosabatni yanada kuchayishi bilan kechishi, o‘z navbatida bu L.P. Matveyev va B.A.Ashmarinlarning uslubiy prinsiplarida ta’kidlanganidek shug‘ullanuvchilarning faolligini kuchayishi bilan kuzatilishini guvohi bo‘ldik.

1-chizma

Darsda harakat faoliyatlarini boshqaruvining nisbiy hususiyatlari



O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarining darslarda buyruqlarga munosabati sidqidildanligi, muhokamasiz har bir topshiriqni mohiyatini tushunmasa ham aynan o‘qituvchi tomonidan qanday bajarilgan bo‘lsa shunday, aytilgan ko‘rsatmalarga rioya qilingan holatda bajarishga urinish qilishlarini kuzatdik. Harakat haqida nazariy bilimlari qanchalik darajada ortsa o‘zlashtirish, mustahkamlash, va takomillashtirishga shunchalik sidqi dildan kirishishiga tajribalarimiz davomida ishondik.

Darsda buyruq tarzidagi atamalarni qo‘llash. Boshlang‘ich sinfdan yuqori sinfga o‘tgan sari darsda buyruq tarzidagi atamalarni qo‘llashni qiyinlashtirish dars nazariyasining navbatdagi hususiyatlaridan biri hisoblanadi. Buyruqlarni berish ketma - ketligi biroz sekinlashtiriladi, ko‘rsatmalarni surati pasaytiriladi, ayrim holatlarda – ko‘rsatma tarzida berilishi maqsadga muvofiqligi tadqiqotlarimiz orqali isbotlandi.

Ko‘rsatmalarni tushuntirishlar tarzida bo‘lishi, dars nazariyasining hususiy bilimlari ekanligini o‘rganish maqsadida boshlang‘ich sinflarda dars beruvchi o‘qituvchilar bilan o‘tkazgan sosiologik so‘rovlarda ishtirok etgan 30 dan ortiq jismoniy madaniyat fani o‘qituvchisining 70% dan ortig‘ini buyruqlar va ko‘rsatmalardan foydalanishga oid javoblari muammoga oid nazariy bilimlarini talab darajasida emasligini ko‘rsatdi. Darsning bu hususiyatlarini nazariy bilimlaridan so‘rovda ishtirok etganlarning 30 % ga yaqini umuman behabarligini tan oldilar.

Atamalarni qo‘llash, ularning nazariy tushunchalarni ta’riflari ham o‘zini takomillashtirilishi lozimligi talabini qo‘yadi..

Darsdagi boshqaruv nazariyasi tarkibidagi ta’lim jarayonini tashkil lash va o‘tkazishda shartli signallar va ulardan foydalanishning nazariy asoslari hozirgacha ham to‘la ishlanmaganligini guvohi bo‘ldik. Oldindan kelishib, ko‘rsatish bilan amalga oshiriladigan, bajariladigan - bayroq larni ko‘rsatish, siltash, qo‘l bilan ishoralar qilish, baland ovoz bilan beriladigan shartli signallar, so‘zdan foydalanib beriladigan ko‘rsatmalarni o‘rnini to‘liq almashtirilishi jismoniy madaniyat darslarining amaliyotida to‘liq isbotlangan.

Kuzatishlarimiz davomida ko‘rsatish va ovoz bilan beriladigan signallardan foydalanish bo‘yicha eksperimental va nazorat guruhiga kiruvchi maktablarimizda boy tajriba to‘planganligini aniqladik.

Boshqaruvning yuqorida qayd qilingan nazariy hususiyatlari o‘zining o‘nlab variantlariga ega ekanligi, ularni qo‘llashda turli maktab yoshidagilarning ruhiy, jismoniy, anatomo - fiziologik hususiyatlarini e’tiborda saqlash, ularning samaradorligi darslarning klassifikatsiyasi, o‘tkazish joyi, vaqti va boshqa faktorlar bilan o‘zviy bog‘liqligi tajribalarimiz davomida o‘zining isbotini topdi.

O‘quvchilarni darsda joylashtirish va dars davomida ularning o‘rnini almashtirishga oid maxsus adabiyotlarimizning nazariy tahlili orqali aniqlashimizcha, o‘quvchilarning faoliyatini darsda tashkillashning to‘rt xil muhim uslubiyoti borligi va ularning hususiy tomonlari biri - birinikidan farqlanishini aniqladik. Ular:

a) o‘quv ishlari - dars davomida sinf o‘quvchilarini to‘liq, hech qanday mayda *guruhlarga bo‘lmay (frontal) tarzida joyini almashtirishlar*; b) *guruhchalarga, zvenolarga, alohida jamoalarga* va h.k.ga *bo‘lish* orqali dars davomida joy almashtirishlar; v) *o‘quvchilarni individual* – har biriga alohida joyga, qo‘yilgan vazifalariga ko‘ra alohida joyda ushlash va ularni *joylarini almashtirish;* g) *jihozlarni* mashg‘ulot joyida *aylanasiga joylashtirib* ularni *navbat bilan aylanib* yurib qo‘yilgan o‘quv *topshiriqlarini bajarish* (“krugovoy trenirovka” – yoki to‘rt xil variantdagi “kreystring” va x.k.lar) tarzidagi o‘rin almashtirishlardan foydalanilishini dars nazariyasi tarkibiga kiritishimiz to‘g‘ri bo‘ladi.

Tajribali o‘qituvchilar qayd qilingan joy almashinishlarni turli xildagi variantlarini o‘rinli variatsiyalashga oid nazariy bilimlar va ularning hususiyatlariga oid zaruriy amaliy malakalarni darsliklar yoki oliy o‘quvt yurtidagi taxsil yillarida olmayotganligining anketalaridagi javoblari bilan va davra suhbatlarida ko‘p bor ta’kidladilar. Masalan, gimnastika darslarida o‘quvchilarni tadqiqotimizga nazorat va tajriba guruhi tarzida tanlagan sinflarimizda bir butunligicha: to‘rt kolonnada, doirada, bir yoki bir necha sherengada va x.k. lar tarzida joylashtirishlarini kuzatdik. Guruh yoki alohida bo‘linmalar gimnastika jihozlarini oldida yoki “stansiyalarda” joylashtirish uslubiyotlarini nisbatan ko‘proq qo‘llayotganliklarini guvohi bo‘ldik.

Individual joylashtirish o‘quvchining ta’lim jarayonida yaxshi o‘zlashtirib ulgurmagan o‘quv materialini takrorlashda kerak bo‘ladigan jihozlar oldida yoki maydonning alohida joylarida joylashtirishdek uslubiyotlardan foydalanishni qo‘llash bilan qo‘yilgan maqsadni nisbatan oson hal qilayotganliklarini kuzatdik.

XULOSA. Joy almashtirish, buyruqlarning bajarilishiga ongli munosabatning hayotiy zaruriy ahamiyatini motivatsiyasi hozirgi kun jismoniy madaniyat darslarida o‘qituvchilarimiz tomonidan to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligini tadqiqotlarimiz davomida nazorat va tajriba maktablari misolida aniqladik.

O‘quvchilar faoliyatini tashkillashning an’anaviy uslubiyotlari – frontal, guruhli, individual, o‘rnatilgan jihozlar yoki belgilangan mashqlarni aylanib yurib bajarish (“krugovoy trenrovka”) uslubiyoti o‘zining yangi variantlari bilan darsning qiziqarliligini oshirishga xizmat qilishini eksperimental sinflarimizda kuzatdik.

Adabiyotlar

1. Abdullayev A., Rasulov R., Xasanov A. Umumiy o‘rta va kasb –hunar ta’limi tizimlarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar. Farg‘ona. 2009y.

2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usu liyati.Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.O‘zDJTI nash. bo‘l. 2007 y.

3. Xankeldiyev Sh., Abdullayev A. va boshq. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlari. Farg‘ona – 2011 y.

4. Salomov R.S., Kerimov F.A., “Jismoniy tarbiyadan pedagogik texnologiyalar”, o‘quv qo‘llanmasi Toshkent – 2008 y. 4-sahifa.